

GIYOHVANDLIK VOSITALARI VA PSIXOTROP MODDALAR BILAN QONUNGA XILOF RAVISHDA MUOMALA QILISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

To'ychiev Nurmuxammad Rustamjon o'g'li.

O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish Akademiyasi
"tergov faoliyati" magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10679183>

Annotatsiya. Mazkur maqolada giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish jinoyatlarini tergov qilishning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, uyushgan jinoyatchilik.

PECULIARITIES OF INVESTIGATION OF CRIMES OF ILLEGAL DEALING WITH NARCOTIC DRUGS AND PSYCHOTROPIC SUBSTANCES

Abstract. This article describes the specific features of the investigation of crimes of illegal dealing with narcotic drugs and psychotropic substances. During the article, reasonable opinions and considerations are mentioned.

Key words: narcotics, psychotropic substances, organized crime.

ОСОБЕННОСТИ РАССЛЕДОВАНИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЙ НЕЗАКОННОГО ОБОРОТА НАРКОТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ И ПСИХОТРОПНЫХ ВЕЩЕСТВ

Аннотация. В статье рассмотрены особенности расследования преступлений, связанных с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ. В ходе статьи приводятся обоснованные мнения и соображения.

Ключевые слова: наркотики, психотропные вещества, организованная преступность.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish inson sog'lig'i va xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi, respublikadagi kriminogen vaziyatga, jamiyatning iqtisodiy va madaniy negiziga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ko'pincha u uyushgan jinoyatchilik bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, bu jinoyatlarning voyaga yetmaganlar orasida tarqalganligi katta xavf tug'diradi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda yetishtirilishi taqiqlangan o'simliklarni o'stirish hollarining ko'payganligi, tarkibida narkotik moddalar mavjud bo'lgan ekin maydonlarining kengayganligi kuzatilmoqda. Katta miqdordagi narkotiklarni, shu jumladan ularning O'zbekiston Respublikasi hududi orqali olib o'tishga mo'ljallanganlarini fosh etish hollari ortmoqda.

Bu jinoyatlardan aksariyati boshqa mamlakatlardagi jinoiy olam bilan aloqasi bo'lgan uyushgan guruhlar tomonidan, shuningdek maxfiy joylardan va texnika vositalaridan foydalangan holda sodir etilmoqda. Narkotiklarni tashish uchun ko'pincha ayollar va o'smirlar jalb etilmoqda.

Amaldagi Jinoyat kodeksining XIX bobi Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat 6 turdagi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilab o'tilgan: Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish 270-modda; giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash 271-modda; giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish

maqsadini ko‘zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o‘tkazish 273-modda; giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni iste‘mol qilishga jalb etish 274-modda; giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar ishlab chiqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish 275-modda; giyohvandlik vositalari, va ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar 276-modda. Giyohvand vositalari bilan qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lish sohasidagi barcha jinoyatlar (JK ning 270-276 moddalari) blanket dispozitsiyalardir. Ya‘ni, jinoyat qonuni giyohvand moddalarni qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyatlar tushunchasini va belgilarini dispozitsiyaning o‘zida ochib bermasdan ushbu sohada qabul qilingan qonun ya‘ni O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagi—Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risidagi 813-I sonli qonuniga va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining —Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, ularning analoglari va prekursorlarning muomalasi sohasidagi nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risidagi qaroriga murojaat etadi. Ushbu qonunda giyohvandlik tushunchasi berilgan bo‘lib, unga muvofiq —Giyohvandlik (narkotik) vositalari —giyohvandlik vositalari ro‘yxatiga kiritilgan va O‘zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi bo‘lgan preparatlar va o‘simliklar tushuniladi. Ushbu toifadagi jinoyatlarni tergov qilishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2017-yil 28-apreldagi —Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti haqidagi qarori talablariga rioya qilish kerak.

Giyohvand moddalar yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lishga oid jinoyat ishlar bo‘yicha aybdorlikning isbotlashning muhim asoslaridan biri hisoblangan, ya‘ni, jinoyat-protsessual kodeksining 173-moddasiga muvofiq, vosita yoki moddani narkotik yoki psixotrop deb e‘tirof etish uchun sud-kimyoviy ekspertiza o‘tkazishdir. Sud-kimyoviy ekspertiza: olingan vosita giyohvand hisoblanadimi, uning turini, aktiv modda miqdori va sof og‘irligini, ularni tayyorlash usuli, saqlash sharoiti, ko‘karib turgan joyi bo‘yicha kelib chiqishi jihatidan umumiy manbaga egaligi haqidama‘lumot beradi.

Giyohvandlik vositalarini qonunga xilof ravishda muomala qilish turidagi jinoyatlarni tergov qilishda subyektning o‘ziga xos tomonlari bo‘lgan: uning giyohvand moddaga ruju qo‘yganligi, so‘roq davomida o‘zini tuta olmasligi, aqlan zaiflashishi, yo‘lg‘on gapirib so‘roqqa xalaqt qilish bilan bog‘liq muammolar bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu turdagi jinoyat ishlar bo‘yicha dastlabki tergovda maqsadini aniqlash ham muhim ro‘l tutadi. Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o‘tkazish jinoyatining zaruriy belgisi maqsadi hisoblanadi. Uning isbotlanmaganligi esa ijtimoiy xavfli qilmishning JK 276-moddasi bilan kvalifikatsiya qilishni belgilab beradi. Giyohvandlik vositasi yoki psixotrop moddalarni tegishli litsenziya (ruxsatnoma)siz oz miqdorda bo‘lsa ham saqlash jinoyat hisoblanadi.

Jinoyatchi esa buning ijtimoiy xavfli qilmishligini bila turib, uni hech kim aniqlashni ilojisi yo‘q joylarni qidirib, saqlash usullarini o‘ylab topadi. Jinoyatchilar javobgarlikdan qochish

uchun bir xil javob ya'ni o'tkazish maqsadida transportda jo'natayotgan buyumlari, hovlisida o'stirib qo'ygan ko'knori o'simligi haqida hech narsa bilmasligini vaj qiladilar. Bu esa tergov jarayonini yanada og'irlashtiradi. Bunday vaziyatda esa, tintuv o'tkazishga tayyorgarlik ko'riladi. Tintuv guruhi ishtirokchilari yetishtirilgan yoki saqlangan hovli yoki joydagi dalillarni: giyohvand vositalari izlari, ularni o'lchashda ishlatilgan tarozilar, nasha tayyorlashda foydalanilgan elaklar, jinoiy yo'l bilan topilgan pul mablag'lari, ijtimoiy xavfli qilmishni bajargan shaxslarni narkotik moddalarni tayyorlovchi yoki vositachiligini, boshqa aloqador shaxslar mavjudligini aniqlash ularning asosiy maqsadi hisoblanadi. Tintuv natijalari bayonnomada aks ettirilgan bo'lishi kerak ya'ni giyohvand moddasini yashirish uchun alohida yaratilgan joy aniqlansa uni tasvirga olishi, qolgan giyohvand yoki psixotrop moddalar yoki prekursorlar aniqlangan taqdirda ularni alohida-alohida joylab va ularni raqamlab suratga olinishi kerak.

Umumiy xulosa qilib aytadigan bo'lsak, giyohvand moddalarni qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishi jinoyatining qarshi kurash olib borishda va bu turdagi jinoyatlarning oldini olish maqsadida keng qamrovli tadbirlar o'tkazilishini ta'minlash lozim.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi [2021 yil 1 aprelgacha bo'lgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar bilan] –T.: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021y.
2. O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagi —Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risidagi qonuni URL: <https://lex.uz/docs/-86044>
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 28-aprelidagi —Giyohvand vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risidagi 12-sonli qarori URL: <https://lex.uz/docs/3203265>